

GLOBALLASHUV SHAROITIDA YOSHLAR MAFKURAVIY IMMUNITETINI YUKSALTIRISH JAMIYAT TARAQQIYOTINING GAROVI

Muxitdinova Iroda Maxmudxonovna

O'zbekiston milliy universiteti tadqiqotchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15854373>

Annotatsiya: Ushbu maqolada globallashuv sharoitida yoshlar ongiga ko'rsatilayotgan mafkuraviy ta'sirlar, ularning ijtimoiy hayotdagi tutgan o'rni hamda bu jarayonda mafkuraviy immunitetni shakllantirishning dolzarbligi tahlil qilinadi. Globallashuv bilan birga kirib kelayotgan yot g'oyalar, ommaviy madaniyat va axborot xurujlari yosh avlodning dunyoqarashi, qadriyatlari va milliy o'zligiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shu bois, yoshlarni mafkuraviy tahdidlardan himoya qilish, ularni mustahkam g'oyaviy asosda tarbiyalash, tanqidiy fikrlash ko'nikmalarini rivojlantirish orqali mafkuraviy immunitetini yuksaltirish bugungi kunning eng muhim vazifalaridan biri sifatida qaraladi. Maqolada bu borada ta'lim tizimi, ommaviy axborot vositalari, oilaning o'rni va davlat siyosatining ahamiyati yoritiladi. Mafkuraviy immunitetining yuksalishi – jamiyat barqarorligi va taraqqiyotining asosiy garovi ekani asoslab beriladi.

Kalit so'zlar: globallashuv, tahdid, ma'naviy tahdid, mafkuraviy immunitet, g'oya, innovatsiya, barqarorlik.

Avvalo yurtimizda innovasion ta'lim tizimiga Mamlakatimizda yuz berayotgan ijobiy o'zgarishlar, har bir sohada kuzatilayotgan yuksalishlar millatlar o'rtasidagi o'zaro totuvlik diniy bag'rikenglikni ta'minlanishi eng avvalo tinchlikni ta'minlash tufaylidir. Yoshlarda ona Vatanga daxldorlik hissini singdirish, sadoqat, milliy g'urur va iftihorni shakllantirish, yoshlarni fidoiy va xalqchil, ijtimoiy faol insonlar qilib tarbiyalash, o'z Vataniga sodiq bo'lib uning rivoji yo'lida befarq bo'lmasdan yashaydigan insonlar etib tarbiyalash zamon talabidir. Zero, ona Vatanga muhabbat, avvalo, milliy o'zlikni anglash, uni tub mohiyatini anglab yetishdan boshlanadi. Bu borada ta'lim dasturlarini yaratish va respublika ta'lim tizimiga joriy etish bo'yicha umumiy o'rta ta'lim maktablarida "Milliy istiqlol g'oyasi" fani sifatida kiritildi.

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasida ona Vatanga muhabbat va milliy o'zlikni saqlab qolish dolzarb muammo hisoblanadi. Bu tuyg'ularni shakllantirishda ijtimoiy-gumanitar fanlarning o'rni benihoya kattadir. Ayniqsa, mamlakatimizda istiqlol yillarida milliy g'oya faniga juda katta e'tibor qaratilib kelinmoqda¹. Xususan, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning 2018 yil 28 dekabrda Oliy Majlisga murojaatnomasida quyidagi fikrlarni aytib o'tdilar: "...oldimizga qo'ygan ulkan vazifalarni amalga oshirishda biz uchun kuch-qudrat manbai bo'ladigan milliy g'oyani rivojlantirishimiz zarur. Milliy o'zligimizni anglash, Vatanimizning qadimiy va boy tarixini o'rganish, bu borada ilmiy-tadqiqot ishlarini kuchaytirish, gumanitar soha olimlari faoliyatini har tomonlama qo'llab-quvvatlashimiz lozim"².

Milliy g'oya fani eng asosiysi yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashga yordam beradi. Milliy o'zlikni anglash avvalo, har bir insonni kim ekanligi, qaynday millat vakili ekanligi, tarixini bilishi, ajdodlari merosini o'rganishdan boshlanib, bu jarayonda milliy g'oya fanining

¹ Qarant: Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг 2001 йил 18 январдаги "Миллий истиқлол ғояси: асосий тушунча ва тамойиллар" фани

² Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига мурожаатномаси. 2019. –Т.: Ўзбекистон, 40-бет.

o'rne kattadir. Mamlakatimizda yoshlarga, ularni ta'lim va tarbiyasiga juda katta e'tibor qaratiladi. Yoshlarni har tamonlama yotuk va zamon talablari darajasida zamonaviy xorijiy tajribalar, jahon fanining zamonaviy yutuq innovatsion g'oyalari asosida bilim berish va tarbiyalash maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017- yil 29-noyabrda "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi PF-5264-son Farmoni² asosida O'zbekiston innovatsion rivojlanish vazirligi tashkil etildi. Ijtimoiy rivojlanishga innovatsiyalarni joriy etish sohasida: ta'lim tizimida innovatsiyalarni, shu jumladan o'qitishning zamonaviy, interaktiv va ijodiy uslublarini joriy etish orqali targ'ib qilishga ko'maklashish, raqamli texnologiyalardan keng foydalanishni nazarda tutuvchi innovatsion o'quv dasturlarini ishlab chiqishni ta'minlash asosiy vazifalardan qilib belgilangan. Innovatsion texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash barcha fanlarni jumladan, Milliy g'oya fanini o'qitishda innovatsion texnologiyalardan foydalanib dars tashkil qilish o'quvchi yoshlarga zamon talablari asosida ta'lim-tarbiya berish zarur. Chunki, yoshlar davlat kelajagidir.

Har bir yosh avlodni ma'suliyatli, qat'iyatli qilib tarbiyalash, mustaqillikni qadrlaydigan ozodlikni qadriga yetadigan o'zining yaxshi insoniy fazilatlarini shakllantirish, millat fidoyisi qilib tarbiyalash davr talabidir. Mamlakatimizning barqaror taraqqiyotida - jamiyatimiz kishilarining yuksak ma'naviyatini, mafkuraviy immunitetini o'rni muhim ahamiyatga molikdir. Chunki, ma'naviyat, milliy g'oya jamiyat taraqqiyoti, millat kamoloti hamda shaxs barkamolligini belgilab beruvchi asosiy mezonlaridandir. Modomiki, "Ma'naviyat asoslari", "Madaniyatshunoslik" va Milliy g'oya: asosiy tushuncha va tamoyillar" fan bilimlari talabalarda ziyolilik, barkamollik, komillik xislatlarini vujudga keltirib, yurt tinchligi, Vatan ravnaqi, xalq farovonligi, ijtimoiy xamkorlik, millatlararo totuvlik, diniy bag'rikenglik kabi keng gumanistik tamoyillarga asoslangan ilmiy dunyoqarashni shakllantiradi. Innovatsion texnologiyalar asosida darsni tashkil etish talabalarining o'zining dunyoqarashini yanada o'sishiga xizmat qiladi. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev ta'kidlaganlaridek, "Xalqimizda "ta'lim va tarbiya beshikdan boshlanadi" degan hikmatli so'z bor. Faqat ma'rifat insonni kamolga, jamiyatni taraqqiyotga yetaklaydi. Shu sababli, ta'lim sohasidagi davlat siyosati uzluksiz ta'lim tizimi prinsipiga asoslanishi, ya'ni, ta'lim bog'chadan boshlanishi va butun umr davom etishi lozim"³. Innovatsion texnologiyalar o'z-o'zidan shakllanmaydi, ya'ni, an'anaviy dars usullarini zamonaviy zamonaviy pedagogik texnologiyalar asosida olib borilishini taqozo etadi. Zamon rivojlangani sayin darslarni ham zamon talablari darajasida takomillashtirib borish kelajakda yaxshi natijalar beradi.

Yurtimizda yoshlar ma'naviyatini yanada yuksaltirishga nafaqat aholi balki davlatimiz tomonidan ham juda katta e'tibor qaratilib kelinmoqda. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tomonidan 2019- yil 3-maydagi PQ-4307-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori qabul qilindi. Yoshlarning intellektual salohiyati, ongu tafakkuri va dunyoqarashini yuksaltirish, mafkuraviy immunitetini mustahkamlash, vatanparvarlik, xalqqa muhabbat va sadoqat tuyg'usi bilan yashaydigan barkamol avlodni tarbiyalashga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Shu bilan birga, jahonda g'oyaviy-mafkuraviy kurashlar keskin davom etayotgan, ma'naviy tahdidlar kuchayib borayotgan hozirgi davrda yoshlar o'rtasida milliy qadriyatlarga

² www.lex.uz

³ Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисиغا мурожаатномаси. 2019. –Т.: Ўзбекистон, 30-бет.

bepisandlik, zararli yot g'oyalar ta'siriga berilish, jinoyatchilik va ekstremizm harakatlariga adashib qo'shilib qolish holatlari hamon uchramoqda.

Ushbu qarorda aholi o'rtasida faol fuqarolik pozitsiyasini shakllantirish, jamiyatda milliy va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan demokratik tamoyillarni qaror toptirish;

mamlakatimizda amalga oshirilayotgan siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarning, qabul qilinayotgan qonun hujjatlarining mazmun-mohiyatini keng jamoatchilikka samarali yetkazish;

oila, mahalla, ta'lim muassasalari va mehnat jamoalarida ijtimoiy-ma'naviy muhitni o'rganish va sog'lomlashtirishga qaratilgan faoliyatda ishtirok etish, "mahalla — tuman — viloyat — respublika" prinsipi asosida hududlar kesimidagi ijtimoiy-ma'naviy muhit xaritasini shakllantirish, bu jarayonga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etish;

"Jaholatga qarshi ma'rifat" g'oyasi asosida jamiyatda uzluksiz ma'naviy-ma'rifiy tarbiya va targ'ibot-tashviqot ishlarini tashkil etishning strategik yo'nalishlari, ta'sirchan, kreativ va innovasion uslublarini ishlab chiqish;

tinchlik va osoyishtalikka, mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlariga hamda insonparvarlik g'oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi samarali targ'ibot ishlarini olib borish;

Yoshlarda vatanga daxldorlik hissini yuksaltirish hamda turli xil yot g'oyalardan himoya qilish maqsadida milliy g'oya fanlarini o'qitishda o'ziga xos innovasion usullardan foydalanish zarur.

Yoshlarni milliy istiqlol ruhida tarbiyalash vazifalari – bu uzluksiz va izchil olib borilishi lozim bo'lgan ta'lim jarayonidir. Zero, o'zgaruvchan mafkuraviy global qiyofa milliy mafkuraviy uslub va yondashuvlarni ham takomillashuvini talab qiladi. Jumladan, hozirgi kunda murakkab va o'zgaruvchan, hayot sur'atlari beqiyos darajada tezlashib borayotgan globallashuv sharoitida yoshlarimizning ma'naviy olamida bo'shliq vujudga kelmasligi uchun ularning qalbi va ongida sog'lom dunyoqarash, ajdodlarimiz merosiga nisbatan faxr-iftixor, hurmat-ehtirom tuyg'ularini qaror toptirish yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

O'z navbatida ona-Vatanimizdagi tinch, osoyishta va farovon hayotning qadriga yetish, shu osuda hayotni yanada mustahkamlash uchun har bir inson o'z hissasini qo'shib, el-yurt taqdiri, kelajagi uchun daxldorlik tuyg'usini diliga jo qilib yashashi bugungi kundagi dolzarb masalalardan biriga aylandi. Yoshlarda sog'lom dunyoqarashni shakllantirish barkamol avlodni tarbiyalashning muhim shartlaridan biridir. Shu ma'noda, soxta va bir yoqlama talqinlar ta'siridan xoli bo'lgan dunyoqarashni shakllantirishning ma'naviy-ma'rifiy asoslarini mustahkamlash bilan bog'liq masalalarning yechimi ham hayotiy-amaliy ahamiyat kasb etayotir. Binobarin, bu muammoni hal etishda fanning turli sohalarida ijod qilgan yurtimiz allomalarining ijodi, ular qoldirgan ulkan ilmiy-ma'rifiy meros beqiyos ahamiyatga ega.

Shu nuqtai nazardan qaraganda, mazkur tadqiqotni fuqarolik jamiyati va mustaqil O'zbekiston madaniy taraqqiyoti tajribasidan kelib chiqqan holda milliy, mintaqaviy va global miqyosda kechayotgan mafkuraviy jarayonlarni tahlil qilish asosida amalga oshirish ko'zda tutilgan. Muhimi, demokratik huquqiy davlat va fuqarolik jamiyati asoslarini barpo etishda ajdodlarimiz yaratgan ilmiy-ma'naviy merosning tarixiy-falsafiy, ma'naviy-ma'rifiy ahamiyatini ko'rsatib berish bilan zarur hisoblanadi.

References:**Используемая литература:****Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Олий Мажлисига мурожаатномаси. 2019. –Т.: Ўзбекистон, 40-бет.
2. Мусаев М.Т. Глобаллашув шароитида миссионерлик ва прозелитизмнинг жамият хавфсизлигига таҳдиди. PhD илмий даражасини олиш учун ёзилган дисс. автореф. ЎзМУ, Тошкент 2018 йил йил.
3. Тўраев Ш. Ўзбекистонда демократик жамият қуришда миллий ғоянинг аҳамияти. Фалсафа фанлар номзоди учун ёзилган дисс. –Т.: 2007 йил.
4. Қурбонов Т. Ёшларда миллий ғурурнинг шаклланишида маданий мероснинг роли.// фалсафа фанлари номзодини олиш учун дисс. 2006 йил.

INNOVATIVE
ACADEMY